

## **Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati**

*Nukus shaxri №33-sonli rassomchilik  
sa'natiga o'rgatishga  
iqtisodlashtirilgan davlat umum o'rta  
talim maktabining tarix fani  
o'qituvchisi Dawletnazarova  
Gulnara*

Xalq pedagogikasi xalqning jamoa ijodkorligining maqsuli sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyot bosqichina belgilab beruvchi tayanch manba hisoblanadi. U ko'p qirrali jarayon bo'lib, tarkibiy vositalarga: xalq og'zaki ijodi (afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, qoshiq, latifa, xalq dramasi); ijtimoiy-tariyxiy taraqqiyot jarayonida rivojlangan qadriyat darajasiga ko'tarilgan ananalar, urf odatlar, rasm-rusumlar, amaliy faoliyatdagi ilg'or tajribalar majmunidan iborat.

Xalq og'zaki ijodining milliy qadriyatlarni targ'ib etishdagi tasir kuchi, o'nda xalqning o'zligi, milliy xarakter xususiyatlarining oshib berilishi bilan xarakterlanadi va o'larga xalqning g'oyaviy siyosiy, aqloqiy, badiiy estetik, ekologik, diniy, aqliy, jismoniy madaniyati mazmuni, manaviy talab va ehtiyojlari, orzu – umidlari, talim–tarbiya shakl usul va vositalari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi o'quvchilarning manaviy madaniyatini shakllantirishda tadqiqot obekti hisolanadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida chuqur ilmiy asosga ega bo'lmasa -da, milliy va manaviy qadriyatlarning ikkala guruhiga mansub bo'lgan barcha qadriyatlarning poydevori (insonparvarlik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, kattalarga hurmat, rostgo'ylik, mehmondo'stlik va boshqalar) o'z aksini topgan.

Rivoyatlar esa mavjud hayot haqiqati haqida asosli malumotlarga tayangan holda uydirmalar fonida umuminsoniy qadriyatlarni avloddan–avlodga etkazadi. Rivoyatlarda o‘tmishda va kelajak uchun dolzarb bo‘lgan insoniyat moddiy va manaviy qadriyatlari taraqqiyoti, masalalari, ezgu orzu-umidlari, armonlar, quvonchlar, tashvishlar, g‘am-qayg‘ular, ehtiroslar o‘z aksini topadi. Umuminsoniy qadriyatlar rivoyatlar negizida tarixiy shaxslar hayoti, faoliyati, manaviy xususiyatlari haqida va turar joylarning nomlanishini o‘rganishga intilish bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Xalq pedagogikasida asosiy tarbiya usuli o‘git, nasihat hisoblanadi. Bu usulning ifodasi naqllarda yaqqol ko‘rinadi. «Naqlar–muayyan asardagi bayonorasida kelib, u yoki bu axloqiy mezon va tushunchalar, haqida yozaga kelgan fikrlarni ko‘chma ma’noda izohlovchi, ta’limiy, ahamiyat kasb etadigan majoz hikoya». Demak, majoz naqlning muhim belgisi hisoblanadi. Naqlar asrlar davomida turmush tajribasida sinovdan o‘tgan manaviy qadriyatlarni o‘git, nasihat usulida tashviq va targ‘ib etuvchi xalq donishmandligining muhim shaklidir. «Odam bilan odam tirik», «Ko‘rpangga qarab oyoq uzat», «har kim ekanini o‘radi» kabi naqllarda insonni moddi va manaviy hayotida yolg‘izlikning dahshatidan o‘quvchi ogoh etiladi, aql - zakovat bilan, chuqur fikrlab keyin xulosa chiqarish lozimligi uqtiriladi. Naqlda yashirin shama, kinoya, umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchi ongiga singdirish usul sifatida uning axloqiy xatti-harakatini manaviy talab mezonida chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati falsafa, aqloq, din, badiy to‘qima unsurlarining mushtarak birligida ertaklar vositasida o‘quvchi madaniyati saviyasiga tasir etadi.

O‘quvchi badiy mahorat bilan yaratilgan ertaklardan estetik zavq oladi, o‘nda xalqni kelajak baxtiyor turmushga ilxomlantiruvchi fantaziyalar orkali hayot

hakikatiga intiladi. Faqat oddiy fantaziyadan iborat bo'lmagan ertaklar o'zining optimistlik xarakteri, joziba kuchi, tasirchanligi, fantaziyaga boyligi, jabr zulmga, adolatsizlikka qarshi qaxr-g'azab ruxi bilan sug'arilganligi bilan insonning kelajak ma'naviy va moddiy hayoti haqida bashoratham qiladi.

Mavjud xayotiy voqealar asosida yaratilgan ertaklar mazmunida ijtimoiy tamoiylar munosabatida o'z echimini topadi. Bunday ertaklarning mazmuni, voqealar rivoji umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati o'quvchilar ongida haqqoniy bahosini oladi. Bundayertaklarning mazmuni, voqealar rivoji umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati, ertakda ilgari surilgan g'oya kichik yoshdagi o'quvchilar ongida xaqqoniy bahosini ololmaydi. Shu sababli o'quvchilarning ruxiy va yosh xususiyatlariga ko'ra, bunday ertaklar ularning manaviy ongiga, faoliyati mazmuniga, hissiyoti, xarakter xususiyatlariga ijobiy tasir etadi.

Ertakning o'ziga xos xususiyatlarini aniq bo'lgan o'quvchi unda ko'tarilgan g'oyaning asl mohiyatini tushunadi, ertak mazmunidagi uydirma xarakteridagi voqea-hodisalardan hayotiy xulosalar chiqarishga o'rganadi.

Ertaklarning asosiy g'oyaviy yo'nalishina adolat, jasurlik, kahramonlik, ezgulik, insonparvarlik, xalqparvarlik kabi manaviy qadriyatlar tashkil etadi.

Umuman olganda insoniyatning orzu-armoniga, yaxshi odam bo'lib yashashiga erishishida milliy qadriyatlar va xalq ertaklaridagi har bir ijobiy qahramonlar harakati tarbiyaviy dar hisoblanadi. SHunday ekan, xalq ertaklarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, har bir ota-ona va barcha tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi pedagoglarning vazifalaridan biri bo'lishi zarur.

### **Adabiyotlar ruyxati**

- 1.N.G'aybullayev, R. Yodgorov, R. Mamatqulova, Q. Toshmurodova. «Pedagogika» Toshkent-2000.
- 2.Q.Qosnazarov, A.Pazilov, A.Tilegenov «Pedagogika» Nókis-2009.oqiw qollanba.